

## BIOLOGIYA DARSLARIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI

**Tuychiyeva, Xilola Zokirjon qizi**

**Farg‘ona davlat universiteti o‘qituvchisi**

**E-mail:** tuychiyevafdu1993@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta’limdagi ahamiyati va afzalliklari haqida ma’lumotlar keltirilgan. Biologiya darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati va ushbu texnologiyalar ta’lim samaradorligini oshirishdagi o‘rni haqida fikrlar yoritilib boriladi.

**Kalit so‘zlar:** pedagogik texnologiya, loyiha, animatsiya, multimedia taqdimotlari, virtual laboratoriya, tasviriy materiallar, video fragment, interaktiv model.

### BENEFITS OF USING MODERN PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN BIOLOGY LESSONS

**Abstract:** This article provides information about the importance and benefits of modern pedagogical technologies in education. The importance of using modern pedagogical technologies in biology lessons and the role of these technologies in improving the effectiveness of teaching will be highlighted.

**Key words:** pedagogical technology, project, animation, multimedia presentations, virtual laboratory, visual materials, video fragment, interactive model.

Ta’lim muassasalari jamiyatning asosiy bo‘g‘inlaridan biri bo‘lib, jamiyatda sodir bo‘layotgan barcha o‘zgarishlarni birinchi bo‘lib his qiladi. Zamonaviy jamiyat tomonidan belgilanadigan ta’lim maskanining ijtimoiy talabi, yangicha fikrlash,

mustaqil ravishda maqsadlar qo‘yish, ularga erishish yo‘llarini topish qobiliyatiga ega bo‘lgan yosh avlod kerakligini ko‘rsatadi.

Ta‘lim muassasalarida biologiya fanini o‘rganish faqat ma‘lum hajmdagi bilimlarni o‘zlashtirishga emas, balki talaba shaxsini shakllantirishga ham qaratilgan. Har bir talabaning talab va qobiliyatini hisobga olgan holda ta‘lim jarayonini faqat yangi ta‘lim texnologiyalaridan foydalangan holda olib borish mumkin. Talabaning o‘quv jarayonini qurishda bevosita ishtirok etishiga imkon beradigan noan‘anaviy ta‘lim texnologiyalaridan foydalanganda o‘quv fanlari mazmunini kuchli va ongli ravishda o‘zlashtirish, shuningdek mantiqiy fikrlash, ijodiy faollik, nutqni rivojlantirish amalga oshiriladi. Bu zamonaviy pedagogik texnologiyalar talabaning qobiliyatlari, mustaqil ishlash qobiliyatini rivojlantirish uchun turtki bo‘ladi.

Ma‘lumki, ta‘lim berish jarayoni samarali bo‘lishi uchun turli metodlar va texnologiyalardan foydalaniladi. Shuningdek muammoli ta‘lim texnologiyasidan foydalanish dars jarayonini qiziqarli bo‘lishini ta‘minlaydi va ta‘lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Muammoli ta‘lim texnologiyasidan foydalangan holda darslar doimo muvaffaqiyatli bo‘ladi. Shuni takidlash kerakki, biologiya darslarida muammoli yondashuvni qo‘llashning o‘ziga xos qiyinchiliklari bor.

O‘qituvchi tomonidan materialning "an‘anaviy" taqdimotiga qaraganda ko‘proq vaqt talab etiladi. Muammoli savolga javob topishda talaba albatta shu savolga oid bilimlarga ega bo‘lishi zarur bo‘ladi. Bu ta‘lim texnologiyasida talabalar fikrlash qobilyati, o‘z xulosalarini erkin bayon etish va eng muhimi fanga bo‘lgan qiziqishini rivojlantiradi. O‘qituvchi esa o‘z bilimini doimiy ravishda oshirib borishi, umuman o‘z ishida, xususan, darsni samarali o‘tishi kerak.

Yangi materialni tushuntirish bosqichida o‘quv faoliyatining rangli rasmlar, slydlar, video fragmentlar, animatsiyala, chizmalar, diagrammalardan foydalanish ta‘lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

O‘quv ma‘lumotlarini bunday taqdim etishdan maqsad ta‘lim muassasalarida aqliy tasvirlar tizimini shakllantirishdir. O‘quv materialining multimedia taqdimoti

ko‘rinishida taqdim etilishi o‘rganish vaqtini qisqartiradi. Darslarda multimediali taqdimotlardan foydalanish diqqat, xotira, aqliy faoliyatning psixologik jihatdan to‘g‘ri ishlash usullari asosida o‘quv jarayonini qurishga imkon beradi.

Biologiya faniga oid materialni mustahkamlash bosqichida o‘quv faoliyatining quyidagi turlaridan foydalanish tavsiya etiladi.

1. Javoblarni tanlagan holda topshiriqlar bilan ishlash.
2. Virtual laboratoriyalarni bajarish.
3. Interfaol topshiriqlar bilan ishlash.
4. Kompyuterdan foydalanish

Bir so‘z bilan aytganda ta’lim berish va ta’lim olish jarayoni bir biri bilan o‘zaro bog‘liq jarayonlardir. Vaholanki har bir o‘qituvchi bilimni tushunarli va qiziqarli tarzda tinglovchiga yetkazib bera olishi zarur. Tabiiy fanlar, jumladan biologiya fanini tushuntirishda asosan hozirgi davrda zamonaviy pedagogic texnologiyalardan foydalanish samarali va natijasi yuqori bo‘ladi. Talabalar biologik jarayonlar haqida tasavvurga ega bo‘lishlari juda muhim bo‘lib, aynan kompyuter texnologiyalardan foydalanish samarali hisoblanadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Barnogul K., Khilola T. The essence of the biological education process, teaching printouts and legislation //Asian Journal of Multidimensional Research. – 2022. – T. 11. – №. 4. – C. 129-133.
2. Kamalova H., Tuychieva H. Improving the spiritual immunological education of academic lyceum students specific issues //ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH. – 2021. – T. 10. – №. 4. – C. 616-620.
3. Tuychiyeva, X. . Z. kizi, & Turdibekov, M. (2022). BIOECOLOGICAL CHARACTERISTICS OF SOPHORA JAPONICA. *Educational Research in Universal Sciences*, 1(7), 146–151. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/852>
- Tuychiyeva , X. Z. qizi, & Turdibekov, M. (2022). THE ECOSYSTEM OF INSECTS. *INTERNATIONAL CONFERENCES*, 1(19), 110–113. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/cf/article/view/715>